

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA TAFAKKUR TUSHUNCHASI**Shixova Inobat Omonovna**

Xorazm viloyati pedagogik Mahorat Markazi katta o'qituvchisi, psixologiya bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), telefon: 91-428-64-32. inobat@gmail.com.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharq mutafakkirlari asarlarida tafakkur va mantiqiy fikrlash tushunchalari haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: В этой статье произведения мышления и логического мышления в работах восточных мыслителей.

Annotation: In this article, the works of thinking and logical thinking in the works of Oriental thinkers.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, o'smirlar tafakkurini rivojlantirish, ijtimoiy-psixologik asoslar, ilmiy nazariyalarga asoslangan, yaxshi so'z, yaxshi amal

Ключевые слова: развитие независимого мышления, развитие подростков, социально-психологические основания, основанные на научных теориях, добрых словах, добрых делах

Key words: the development of independent thinking, the development of adolescents, socio-psychological foundations based on scientific theories, good words, good deeds

Kirish

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarilib, uning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoni doirasida, «O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ni amalga oshirish bo'yicha bir qator muhim vazifalar belgilangan. Ushbu konsepsiyaning mohiyati zamonaviy ta'lim standartlarini joriy etish, innovatsion usullarni qo'llash va ta'lim jarayonini raqamlashtirish orqali yosh avlodni tarbiyalash va ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish, yaxshilashga qaratilgan. Yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, aqliy tafakkurini rivojlantirish, huquqiy-demokratik davlat qurish jarayonida ularda hurfiylik, aqliy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu jarayonlar, shuningdek, xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish orqali ta'lim tizimini yanada sifatli va samarali qilishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar yoshlarimizning ta'lim olishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning kelajakda yetuk va mukammal, komil inson bo'lishlariga zamin yaratadi. Shu sababdan ham yoshlar, o'smirlar tafakkurini rivojlantirishga doir ijtimoiy-psixologik asoslar yaratish va ularni

takomillashtirish zarur. Zamonaviy psixologiya fanida yoshlarning tafakkurini rivojlantirish, ularni salbiy g'oyalardan himoya qilish va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish ustuvor vazifalardandir. Ushbu maqsadga erishish uchun psixologik va pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, ularni ilmiy nazariyalarga asoslangan holda tadqiq qilish zarur. Yoshlarning tafakkuri, uning mohiyati va mazmuni to'g'risida mavjud ilmiy nazariyalarni tahlil qilib, ularga asoslangan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish muhimdir. Bu orqali yoshlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ularning ma'naviy va ijtimoiy jihatdan mustahkam bo'lishini ta'minlashga erishiladi.

Adabiyotlarni o'rganish

Sharq mutafakkirlarining tafakkur va mantiqiy fikrlashga oid yondashuvlari, zamonaviy ta'lim va falsafa, psixologiya uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Insonni fikrlashga undovchi manbalardan biri «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, ajdodlarimiz yaratgan eng qadimiy, noyob bilimlarning xazinasidir. Unda olamdagi barcha diniy, dunyoviy, tabiiy fanlar bo'yicha teran fikrlar mujassamlashgan. Jumladan, «Avesto»da yaxshi fikr tarbiyasi haqida quyidagi mulohazalar uchraydi: «Tarbiya — hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avval yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin». «Yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman». «Avesto»da bosh masala-yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash va insondagi axloqiy qadriyatlar, xususan, adolat, rahm-shafqat va sadoqat haqida ko'plab o'gitlar beriladi. Insonning yaxshi fikr va niyatlari uning harakatlarini belgilaydi. Avestoda odamning tanasi ham, so'zi ham, ishi-yu tafakkuri ham pok bo'lmog'i lozim deyiladi. Ahuramazda dedi: «O'zgalarga ro'shnolik istagan odamning yo'li albatta hamisha nurafshon bo'lgay!». Demak, «Avesto» ma'naviyatimizning ilk sarchashmalaridan biridir. Unda iymon, e'tiqotda sobitlik, kasbni egallash, xalqni adolat, ma'rifat, insondo'stlik, vatanparvarlik, ona sayyorani e'zozlashga hidoyat etishga da'vat bosh masala hisoblanadi.

«Avesto»da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi. Axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan. Insonning inson sifatida moddiy va ma'naviy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, nafaqat sharq, balki g'arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo'lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g'oyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmatini bugungi kunda ham yuqori bo'lishini ta'minlagan.

Islom dinining muqaddas manbasi bo'lmish Qur'oni Karimda hurfikrlilik, halollik va poklik, iymon va vijdon, sadoqat, birodarlik, adolat, axloqiy kamolot,

e'tiqod, hayo kabi insoniy sifatlarga katta e'tibor qaratilgan. Alloh taolo tafakkur va mushohadaga buyurib, tafakkur kishilarini maqtab, shunday deydi: «Ular turib ham, o'tirib ham, yotib ham Allohni zikr etadilar va osmonlar-u Yerning yaratilishi haqida fikr yuritadilar (va duo qiladilar...)» (191-oyat) «Alloh bir kishining ichida ikki qalb yaratgan emas» (Ahzob surasi, 4-oyat), ya'ni «Fikrlar turli tomonga sochilgani sayin, narsaning haqiqatini bilish qiyinlashaveradi. Shuning uchun hukamolar: «Sen o'zingni ilmga to'la bag'ishlamaguningcha ilm senga biror narsasini ham bermaydi...», - deyishgan. «Har tarafga sochilgan fikr, xayol ko'plab ariqlarga tarqalib ketgan suvga o'xshaydi. Uning bir qismini yer shimadi, qolgani havoga bug'lanadi, ekinga hech narsa yetib bormaydi» - deb, fikrning teranligi, tafakkurga ega bo'lish uchun inson ilm talabida bo'lib, ma'rifatga intilib, o'qib o'rganib, muayyan sohani egallashi zarurligiga ishora qilingan

Payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V.): «Bir soatlik tafakkur bir yil ibodat qilgandan xayrliroq», deb marhamat qilganlar. Qur'oni Karimda tadabbur, e'tibor, nazar va fikr qilishga undaydigan oyatlar ko'p. Sir emaski, fikr nurlar kaliti va bilish uchun harakat asosdir. Shuningdek, fikr ilmlarni o'zida tutib qoladigan to'r, maqsad va tushuncha tuzog'idir. Ko'pchilik ilmning fazl va martabasini bilsa ham, uning haqiqati, samarasi, masdari, makoni, paydo bo'lish joyi, yo'li va kayfiyatidan xabardor emas. Inson qanday tafakkur qilish, nima to'g'risida va nima uchun tafakkur qilishni, talab etilgan narsa ayni maqsad yoki maqsad emasligini ham to'g'ri hal qila olmagan.

Ibn Abbos: «Yaxshiliklarni fikrlab ko'rish yaxshilik qilishga undaydi, yomonliklardan afsuslanish undan voz kechishga boshlaydi», deya ta'kidlaydi. Rivoyat qilinishicha, Alloh taolo kitoblaridan birida aytadiki: «Har bir hikmat sohibining so'zini qabul qilavermayman, uning o'y-fikri va ishtiyoqiga qarayman. Agar uning o'y-fikri va ishtiyoqi men uchun bo'lsa, sukutini tafakkur, so'zini hamdga aylantirib qo'yaman».

Shofe'iy rahimahulloh aytadilar: «Sukut saqlash bilan gapirishga, fikrlash bilan xulosa chiqarishga yordam beringlar». Tag'in u zot: «Masalaga to'g'ri nazar g'ururdan saqlaydi, bir fikrga qaror qilish xato va nadomatdan xalos etadi: ko'rish va fikrlash jazm va fatonat (farosat)ni kashf etadi. Hikmat ahli bilan maslahatda bo'lish nafsga sabot va aqlga quvvat beradi. Bir qarorga kelishdan oldin fikrlab ko'r, hujumga o'tishdan oldin tadbir qil, oldinga yurishdan ilgari maslahatlash». «Tafakkur»ning foydasi esa ilmni ko'paytirish va hosil bo'lmagan ilmni jalb qilishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi. «Qalb qimmatbaho javhar, butun ko'z oldimizda namoyon narsalar orasida eng aziz va sharaflidir. Va u ilohiy ishdir. Ruhning nisbati inson jasadidagi boshqa a'zolardan ko'ra sharafliroq. Allohning omonati yuklangan qimmatbaho javhar mana shu ruhdur». Inson kamoloti, avvalo, uning ilm va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab

kelgan. Ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etgan jamiyatgina ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi». Qur'on»ning «Zumar» surasi 9-oyatida kishilarni ilm o'rganishga da'vat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: «Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalariga pand-nasihat qila olurlar». Islom dinida insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi: ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash, so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqtiriladi.

XULOSA

Tasavvuf allomalaridan biri Azizuddin Nasafiy (XIII asr) «Komil inson» nomli kitobida shunday yozadi: «Bilgilki, komil inson quyidagi to'rt narsaga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi, yaxshi so'z, ikkinchisi ezgu faoliyat, uchinchisi go'zal axloq, to'rtinchisi ilmdir. Bu to'rt narsaga erishgan kishi komil bo'lishi mumkin», o'z fikrini davom ettirib: «Komil inson bo'lish uchun mukammallikka intilmoq lozim. Ya'ni, yaxshi aql, yaxshi so'z, yaxshi fikr, yaxshi axloq bilan o'rnak bo'lmoq, adolatli, qanoatli, oriyatli, ma'rifatli bo'lmoq, ilmbilimni chuqur egallamoq, olamni balo-fitna, g'iybatlardan saqlamoq, kishilar mushkulini oson qilmoq lozim» deganlar. Shu bilan birga «...aql va ilm faqat insonlarga xos...» Muhammad al-Xorazmiy (783-850) insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan. Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar — Bobil, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi ulardan farq etuvchi yangi kashfiyotlar yaratdi. Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'z asarlarida ilm-ma'rifat va tafakkurning xalq va jamiyat farovonligidagi ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. U ilmning inson axloq kamolotidagi o'rnini alohida ta'kidlaydi, chunki bilim va tafakkur insonni yaxshilash, ijtimoiy hayotni rivojlantirish va jamiyatda adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Al-Xorazmiy ilm va ma'rifatni nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatni o'stirish uchun zarur deb hisoblaydi. Uning fikricha, bilim insonni ruhiy va axloqiy jihatdan boyitadi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Xorazmiyning ta'kidlashicha, adabiyot ijtimoiy tafakkur shakllaridan biri sifatida inson badiiy kamolotiga xizmat qilishi lozim. Nutq boyligi puxta, chuqur bilishni — ijobiy fikrlash malakasini egallashning asosi, - deb hisoblaydi. Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. U matematika fanida abstraksiya tushunchasini kengaytiradi. Induksiya yo'li bilan umumiy yechish

usullarini hal etadi, deduksiya yo‘li bilan umumiy usullar yordamida xususiy masalalarni yechadi. «Al-jabr val-muqobala» asari bilan matematika fanini rivojlantirib, o‘zidan avvalgi bilimlarni o‘rgandi va ularni sintezlashtirdi hamda amalda qo‘llash usullarini bayon etdi. Alloma o‘zigacha bo‘lgan ilmiy bilimlarning asosiy g‘oyalari, tamoyil va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o‘rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e‘tiborni qaratdi. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e‘tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to‘plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushuntira olish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala» asarida olimlarni uch guruhga bo‘lib shunday yozadi: Ulardan biri o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Al-Xorazmiy ko‘rgazmali tajriba, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash, savol-javob metodlari, bilim berishning turli vositalaridan foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e‘tibor berganligini ko‘rsatadi. Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: «sezgi» orqali bilish bu qisman bilish bo‘lsa, mantiqiy bilish esa haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi. Abu Nasr Farobiy (873-950) aql va tafakkur yordamida bilim olishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga katta e‘tibor bergan. Uning asarlarida tafakkurning ma‘lum va mavhumlik, shuningdek, sezgi a‘zolari orqali bilish xususiyatlari ta’kidlanadi. Farobiy ta’limotiga ko‘ra, inson tafakkuri (aql) orqali materiyaning sezgilarga noma‘lum tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san‘at, fan to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘ladi. Farobiyni bu fikrlari zamonaviy ta’lim va bilim olish metodologiyasiga ham muhim ta’sir ko‘rsatgan. Uning aql va tafakkur haqidagi qarashlari — bilimlarni tizimli ravishda o‘rganish va to‘g‘ri tushunish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Farobiy ta’limoti o‘z zamonidagi ideal jamiyat, axloq, ma’rifat, aql-idrok, ishonch va baxt-saodatni ta’kidlaydi. Uning nazariy ifodalari odamlarni birlashtiruvchi asos sifatida insoniylikni ko‘rsatadi. Farobiya ko‘ra, har bir inson o‘z ruhining g‘ururi va vijdonini qadrlashi, yuqori va olijanob ishlarga intilishi lozim. U «Fozil odamlar shahri» asarida baxt-saodatga erishishni istagan har bir inson fozillikka intilib yashashi kerakligini ta’kidlaydi. Farobiy, shuningdek, inson birdamlik, yakdillik, adolat va haqiqiylik orqali baxt va saodatga erishishini ta’kidlaydi. Abu Nasr Farobiy dunyoni aql yordamida bilishni nazarda tutib: «Tushunish esa (narsalarning) mohiyatini, umumiy qoida va qonunlar to‘g‘risidagi harakat bo‘lib, ularning oxiri bor va chegaralangan hamda umumlashgandir», - deydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida aql, bilim, fikrlash, tafakkur haqida o‘zlarining ajoyib fikrlarni bildirganlar. Bu fikrlar o‘z davrida ham, bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Do‘stmuhammedova Sh.A., Nishanova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent:” O‘qituvchi”, 2013. - 343 b.
2. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. - T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. B. 5-6.
3. Farobiy, “Fozil odamlar shahri”. Tanlangan asarlar. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2003. B. 45-46.
4. Фрейд З. Теория и практика детского психоанализа / З.Фрейд. – М.: ЭКСМО-Пресс. 2009. – Т.1. – 384 с.